


## XI. KORXONA VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI




Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025- yilning 1-aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 50 093 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 25 184 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 50,3 %ini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (41,5 %), savdo (19,6 %), sanoat (8,6 %) va qurilish (4,5 %) sohalariga to'g'ri keldi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni  
(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



**Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi  
(2025- yil 1-aprel holatiga)**

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %da	birlik	jamiga nisbatan %da
<b>Jami</b>	<b>50 093</b>	<b>100,0</b>	<b>25 184</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	24 052	48,0	10 457	41,5
sanoat	4 937	9,9	2 166	8,6
qurilish	2 449	4,9	1 134	4,5
savdo	8 894	17,8	4 934	19,6
tashish va saqlash	693	1,4	363	1,4
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 139	4,3	1 149	4,6
axborot va aloqa	426	0,9	220	0,9
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	469	0,9	358	1,4
boshqa faoliyat turlari	6 034	12,0	4 403	17,5

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025- yilning 1- aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 32 349 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 17 643 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 54,5 % ni tashkil qildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning %i) savdo (27,5 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (19,5 %) sanoat (15,3 %) va qurilish (7,6 %) sohalariga to'g'ri keldi.

**Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
(2025- yil 1-aprel holatiga fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	jamiga nisbatan %da	birlik	jamiga nisbatan %da
<b>Jami</b>	<b>32 349</b>	<b>100,0</b>	<b>17 643</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 308	19,5	2 916	16,5
sanoat	4 937	15,3	2 166	12,3
qurilish	2 449	7,6	1 134	6,4
savdo	8 894	27,5	4 934	28,0
tashish va saqlash	693	2,1	363	2,1
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 139	6,6	1 149	6,5
axborot va aloqa	426	1,3	220	1,2
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	469	1,4	358	2,0
boshqa faoliyat turlari	6 034	18,7	4 403	25,0

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025- yilning 1- aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, Jizzax shahri 8 520 ta (26,3 %), Sharof Rashidov 4 506 ta (13,9 %), G'allaorol 3044 ta (9,4 %) va Zomin 2 869 ta (8,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- aprel holatiga 17 643 taga yetib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 92,5 %ni tashkil etdi (1 437 ta) ga kamaygan.. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 28,0 %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 16,5 %, sanoat – 12,3 %, qurilish – 6,4 %, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 6,5 %, tashish va saqlash – 2,1 %, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 2,0 %, axborot va aloqa – 1,2 %, boshqa turlari – 25,0 % ni tashkil etdi.

### Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari

<b>Jami:</b>	<b>17 643</b>	Jizzax shahri	4 749
Arnasoy tmani	813	Zarbdor tmani	846
Baxmal tmani	1 314	Mirzacho‘l tmani	623
G‘allaorol tmani	1 686	Zafarobod tmani	491
Sharof Rashidov tmani	2 429	Paxtakor tmani	847
Do‘stlik tmani	638	Forish tmani	1 225
Zomin tmani	1 546	Yangiobod tmani	436

**Jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning  
hududlar bo‘yicha taqsimlanishi  
(2025- yil 1-aprel holatiga, birlik)**

	2025- yil 1-aprel holatiga ro‘yxatga olinganlar soni	Shu jumladan, 2025- yil yanvar-mart oylari davomida:	
		yangi tashkil etilganlar	tugatilganlar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>50 093</b>	<b>956</b>	<b>981</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	8 593	209	267
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	2 993	92	33
Baxmal	4 285	56	61
G‘allaorol	5 660	131	105
Sharof Rashidov	6 763	121	100
Do‘stlik	2 159	42	74
Zomin	4 932	76	77
Zarbdor	3 791	42	66
Mirzacho‘l	2 432	36	37
Zafarobod	2 245	18	11
Paxtakor	2 469	47	53
Forish	2 701	51	80
Yangiobod	1 070	35	17

2025- yilning yanvar–mart oylarida jami 956 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes sub’yektlari 883 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 209 tasi, yoki 21,9 %) hamda G‘allaorol (131 tasi, yoki 13,7 %), Zomin (76 tasi, yoki 7,9 %), Sharof Rashidov (121 tasi, yoki 12,7 %), Forish (51 tasi, yoki 5,3 %), Baxmal (56 tasi, yoki 5,9 %), Zarbdor (42 tasi, yoki 4,4 %), Paxtakor (47 tasi, yoki 4,9 %), Arnasoy (92 tasi, yoki 9,6 %), Zafarobod (18 tasi, yoki 1,9 %), Do‘stlik (42 tasi, yoki 4,4 %), Mirzacho‘l (36 tasi, yoki 3,8 %) va Yangiobod (35 tasi, yoki 3,7 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.


**Ro'yxatga olingan yuridik shaxslarni hududlar  
bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)

	2025- yil 1-aprel holatiga ro'yxatga olinganlar	shuningdek, 2025- yil yanvar-mart oylari davomida:	
		yangi tashkil topganlar	tugatilganlar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>32 349</b>	<b>940</b>	<b>907</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	8 520	209	267
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1 400	92	28
Baxmal	2 293	55	54
G'allaorol	3 044	130	89
Sharof Rashidov	4 506	121	99
Do'stlik	1 269	39	66
Zomin	2 869	75	76
Zarbdor	1 620	40	41
Mirzacho'l	1 250	33	34
Zafarobod	1 066	18	11
Paxtakor	1 596	47	49
Forish	2 141	51	78
Yangiobod	775	30	15

2025- yilning yanvar–mart oylarida (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) jami 940 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan kichik biznes sub'yektlari 867 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 209 tasi, yoki 22,2 %), G'allaorol (130 tasi, yoki 13,8 %), Sharof Rashidov (121 tasi, yoki 12,9 %) va Zomin (75 tasi, yoki 8,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2025- yil 1-aprel holatiga 28 895 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 21 218 ta, xususiy korxonalar 4 592 ta, oilaviy korxonalar 2 631 ta, boshqa tijorat korxonalar 454 tani tashkil etdi.

**Ro'yxatga olingan tijorat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari bo'yicha soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 32,6 %i savdo, 25,3 %i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 11,7 %i sanoat va 7,6 %i yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohaslariga to'g'ri keldi.

Hisobot davrida 907 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.


**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.** 2025- yil 1- aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 217 tani tashkil etdi.

2025- yilning 1- aprel holatiga xorijiy mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 217 tani tashkil etdi. Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 82 ta, Turkiya Respublikasi 71 ta, Rossiya Federatsiyasi 46 ta, Amerika Qo'shma Shtatlari 5 ta, Buyuk Britaniya 4 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 9 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

## Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hamkor davlatlar kesimidagi soni, *birlikda*

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 94 tasi qo'shma korxonalar, 123 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024-2025- yillar 1-aprel holatiga xorijiy mamlakatlar rezidentlarining kapitali ishtirokida ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni – 12 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,3 %ga o'sgani kuzatildi. Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi – 5 ta, Turkiya Respublikasi – 3 ta, Rossiya Federatsiyasi – 2 ta hamda boshqa davlatlarning rezidentlari kapitali ishtirokida 2 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**  
(2025- yil 1-aprel holatiga, birlikda)

	2025- yil 1-aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotganlar soni	shundan	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>217</b>	<b>94</b>	<b>123</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	81	31	50
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	16	3	13
Baxmal	5	3	2
G'allaorol	14	6	8
Sharof Rashidov	21	8	13
Do'stlik	6	1	5
Zomin	20	9	11
Zarbdor	4	1	3
Mirzacho'l	3		3
Zafarobod	9	4	5
Paxtakor	9	7	2
Forish	25	18	7
Yangiobod	4	3	1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida 81 ta (umumiy miqdordagi ulushi 37,3 %), Forish tumanida 25 ta (11,5 %), Sharof Rashidov tumanida 21 ta (9,7 %), Zomin tumanida 20 ta (9,2 %), Arnasoy tumanida 16 ta (7,4%) hamda G'allaorol tumanida 14 ta (6,5 %) ni tashkil etdi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi**  
(2025- yil 1-aprel holatiga)


	<i>Korxonalar soni, birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>217</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	25	11,5
Sanoat	107	49,3
Qurilish	13	6,0
Savdo	25	11,5
Tashish va saqlash	6	2,8
Yashash va ovqatlanish	3	1,4
Axborot va aloqa	24	11,0
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	1	0,5
Boshqa faoliyat turlari	13	6,0

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan 217 ta korxonaning 107 tasi (49,3 %) sanoat, 25 tasi (11,5 %) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 25 tasi (11,5 %) savdo, 13 tasi (6,0 %) qurilish, 6 tasi (2,8 %) tashish va saqlash, 3 tasi (1,4 %) yashash va ovqatlanish, 1 tasi (0,5 %) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 24 tasi (11,0 %) axborot va aloqa hamda 13 tasi (6,0 %) boshqa sohalarga to‘g‘ri keldi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**  
(fermer va dehqon xo‘jaliklari bilan)

2025- yil 1- aprel holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 14 473 tani tashkil qildi. Bu ko‘rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 8,4 %ga kamaygan. Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya‘ni 4 022 tasi (27,8 %) Jizzax shahriga, 2 087 tasi (14,4 %) Sharof Rashidov, 1 394 tasi (9,6 %) G‘allaorol va 1 245 tasi (8,6 %) Zomin tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14 473 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2 869 tasi (19,8 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 4 922 tasi (34,0 %) savdo, 2 124 tasi (14,7 %) sanoat, 1 107 tasi (7,6 %) qurilish, 1 145 tasi (7,9 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 360 tasi (2,5 %) tashish va aqlash, 243 tasi (1,7 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 204 tasi (1,4 %) axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1 499 tasi (10,4 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmoqlariga to'g'ri kelib, eng kam ulushlar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa sohalariga to'g'ri keldi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining  
iqtisodiy faoliyati turlari bo'yicha taqsimoti, % da**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




2025- yilning yanvar–mart oylarida yangi 867 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilgan. Bu esa 2024- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 22,2 %ga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar Jizzax shahri (200 ta), Sharof Rashidov (119 ta), G'allaorol (114 ta) tumanlarida, eng kamlari Forish (35 ta), Paxtakor (42 ta), Do'stlik (31 ta), Mirzacho'l (31 ta), Zafarobod (17 ta) hamda Yangiobod (29 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining eng ko'pi savdo (283 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (220 ta), sanoat (102 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (66 ta) sohalari, shuningdek boshqa faoliyat turlari (95 ta) hissalariga, eng kamlari esa, qurilish (52 ta), axborot va aloqa (23 ta), tashish va saqlash (17 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (9 ta) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2025- yilning 1-aprel holatiga 2 631 tani tashkil etdi, ulardan 1 192 tasi yoki 45,3 %i faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 373 tasi yoki 31,3 %i sanoat, 398 tasi yoki 33,4 %i savdo, 204 tasi yoki 17,1 %i yashash va ovqatlanish xizmatlari, 125 tasi yoki 10,5 %i qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 13 tasi yoki 1,1 %i sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, qolgan 6,6 %i boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keldi.

## Xususiy korxonalar soni (2025- yil 1-aprel holatiga, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni **2025- yil 1-aprel** holatiga ko'ra 4 592 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 271 taga yoki 5,6 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 1 950 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 641 taga yoki 24,7 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2025- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 34 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 67 taga yoki 66,3 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2025- yil 1-aprel holatiga, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni **2025- yil 1- aprel** holatiga 21 218 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 708 taga yoki 8,8 %ga o'sganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 224 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 368 taga yoki 3,2 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2024- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 763 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103 taga yoki 11,9 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.

